



2018 yil yanvar-iyun oylarida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **5 535,2** mlrd.somni, osish **7,0%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`shish sur`ati – **103,7 %**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **28,4%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **32,1%**

Dastlabki ma'lumotlar bo'ycha 2018 yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalaridan tomonidan 5535,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 6,8 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 16,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 6,6 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 15,1 % ga o'sishi hisoblanadi.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 69,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ni tashkil etdi.



Tog'-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan - 16,6 % ga, ko`mir qazib olish sanoati sohasida - 3,6 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5101,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,2 % ni tashkil etdi.



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ichimliklar ishlab chiqarish 16,1 % ga, qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish 10,2 % ga, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish 23,1 % ga, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 4,6 %ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 45,8 % ga, mebel ishlab chiqarish 14,8 % ga, oshganligini va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, komp`yuterlar



elektron va optik mahsulotlar ishlabchiqarish, kiyim ishlab chiqarish, hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash.



Elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 336,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,1 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,1 % ga oshganligi kuzatildi.




2018 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1571,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,7 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 28,4 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




Yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg'ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 35,8% ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 13,5% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 7,2% ulushini), Marg'ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,8% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 14,2% ulushini), Dang'ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,5% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,6% ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,7% ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,5% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,1% ulushini), Bog`dod, Oltiariq va Farg'ona tumanlari (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,7% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% ulushini), Qo`shtepa, So`x, Uchko`prik, Furqat tumanlari (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% dan kam ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.


Hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi o`tg`an yilning mos davriga nisbatan foiz hisobida.


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi o`tg`an yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga o`shishiga erishilda. Hududlar kesimida o`shish sur`atlari quyidagicha Farg`ona shahar 116,0%, Qo`qon shahar 113,3%, Quvasoy shahar 101,2%, Marg`ilon shahar 106,9%, Toshloq tumani 109,7%, Dang`ara tumani 107,0%, O`zbekiston tumani 106,6%, Quva tumani 107,3%, Buvayda tumani 106,8%,

Beshariq tumani 108,3%, Bog`dod tumani 104,9%, Oltiariq tumani 106,4%, Farg`ona tumani 105,8%, Rishton tumani 109,0%, Yozyovon tumani 104,6%, Qo`shtepa tumani 106,4%, So`x tumani 105,5%, Uchko`prik tumani 102,1%, Furqat tumani 108,4% ga, to`g`ri keldi.



Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi.

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 328,7 mlrd.so`m, Qo`qon shahar 273,6 mlrd.so`m, Quvasoy shahar 70,8 mlrd.so`m, Marg`ilon shahar 173,7 mlrd.so`m, Toshloq tumani 46,7 mlrd.so`m, Dang`ara tumani 50,9 mlrd.so`m, O`zbekiston tumani 65,8 mlrd.so`m, Quva tumani 82,6 mlrd.so`m, Buvayda tumani 42,7 mlrd.so`m, Beshariq tumani 75,0 mlrd.so`m, Bog`dod tumani 56,7 mlrd.so`m, Oltiariq tumanlari 69,5% mlrd.so`m, Farg`ona tumani 55,1 mlrd.so`m, Rishton tumani 58,5 mlrd.so`m, Yozyovon tumani 34,1 mlrd.so`m, Qo`shtepa tumani 43,0 mlrd.so`m, So`x tumani 22,0 mlrd.so`m, Uchko`prik tumani 12,2 mlrd.so`m, Furqat tumani 9,8 mlrd.so`mga, to`g`ri keldi.



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101.1 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 32,1 % tashkil etmoqda.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini.

Bugungi kunda viloyatda 5806 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1135 tasi Qo`qon shahri, 784 tasi Marg`ilon shahri, 744 tasi Farg`ona shahri, 408 tasi Uchko`prik tumani, 363 tasi O`zbekiston tumani, 308 tasi Dang`ara tumani, 269 tasi Buvayda tumani, 226 tasi Toshloq tumani, 213 tasi Quva tumani, 186 tasi Bog`dod tumani, 180 tasi Oltiariq tumani, 161 tasi Qo`shtepa tumani, 149 tasi Rishton tumani, 143 tasi Farg`ona tumani, 140 tasi Quvasoy shahri, 112 tasi Yozyovon tumani, 106 tasi Furqat tumani, 90 tasi Beshariq tumani, 89 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 629 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ulardan 98 tasi Qo`qon shahri, 62 tasi Marg`ilon shahri, 73 tasi Farg`ona shahri, 54 tasi Uchko`prik tumani, 42 tasi O`zbekiston tumani, 19 tasi Dang`ara tumani, 48 tasi Buvayda tumani, 27 tasi Toshloq tumani, 29 tasi Quva tumani, 24 tasi Bog`dod tumani, 32 tasi Oltiariq tumani, 11 tasi Qo`shtepa tumani, 21 tasi Rishton tumani, 19 tasi Farg`ona tumani, 15 tasi Quvasoy shahri, 9 tasi Yozyovon tumani, 15 tasi Furqat tumani, 19 tasi Beshariq tumani, 12 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-iyun oylari davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:

F.Yakubov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-87-19